Аннотация. В статье рассматриваются возможности и риски применения технологий искусственного интеллекта (ИИ) при оценке системы внутреннего контроля в государственном секторе. Исследование основано на аналитических отчетах международных организаций — KPMG (2024), PwC (2023), Всемирного банка (2024) и OECD (2025), а также на современных научных публикациях из баз Scopus и Web of Science. Результаты показывают, что использование ИИ значительно повышает эффективность, прозрачность и достоверность процессов внутреннего контроля и аудита за счёт автоматизации анализа данных, прогнозирования рисков и выявления ошибок. Вместе с тем остаются проблемы, связанные с этическими аспектами, недостаточной квалификацией кадров и безопасностью данных.

Ключевые слова: аудит, государственный сектор, внутренний контроль, цифровая трансформация, управление рисками, искусственный интеллект, этические стандарты.

KIRISH

Davlat sektorida ichki nazorat tizimlarining samaradorligi, shaffofligi va javobgarligi institutsional boshqaruv sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgani, xususan, sun'iy intellektning keng tatbiqi nazorat jarayonlarining yangi bosqichga o'tishiga imkon bermoqda.



Ushbu jarayon ichki nazorat tizimini avtomatlashtirish, xatoliklarni erta aniqlash, korrupsiya xavfini kamaytirish va real vaqt rejimida monitoring olib borish imkoniyatini yaratadi. Jahon tajribasi ham sun'iy intellektning auditorlik va nazorat faoliyatida qo'llanilishi "continuous auditing", "predictive analytics" va "risk scoring" kabi mexanizmlar orqali an'anaviy yondashuvlarga nisbatan yuqori natijalar berayotganini ko'rsatmoqda.

Biroq sun'iy intellektning davlat sektoriga integratsiyasi faqat imkoniyatlar bilan cheklanmaydi. Algoritmik xatoliklar, ma'lumotlar sifati, huquqiy mas'uliyatning noaniqligi, shuningdek, kadrlar tayyorgarligi kabi omillar ichki nazorat tizimida yangi xavflarni yuzaga chiqaradi. Shu bois davlat boshqaruvi organlari uchun asosiy masala — texnologik innovatsiyalarni qo'llash va institutsional xavfsizlikni ta'minlash o'rtasida muvozanatni topishdan iborat.

Mazkur tadqiqot sun'iy intellektning davlat sektorida ichki nazorat tizimini baholashdagi amaliy samaradorligini, potensial xavflarini va institutsional moslashuv mexanizmlarini tahlil qilishga qaratiladi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat sektorida ichki nazorat tizimlarini baholashda sun'iy intellektdan foydalanish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda. Quyidagi adabiyotlar sharhi mazkur mavzu bo'yicha xalqaro va milliy darajadagi asosiy ilmiy manbalarni tahlil etadi. Xalqaro tadqiqotlar yondashuvlari Liu va hammualliflar [2024] tadqiqotida sun'iy intellektni qo'llash ichki nazorat tizimining samaradorligini bevosita oshirishi qayd etilgan. KPMG [2024] hisobotida AI asosidagi tahlil usullari orqali "continuous auditing" va "predictive control" tizimlarini yaratish imkoniyati ta'kidlanadi. Shu bilan birga, Plata va boshqalar [2024] tadqiqotlarida avtomatlashtirish bilan birga inson omilining qisqarishi va axloqiy xavflar mavjudligi ko'rsatilgan.

Broniatowski [2023] davlat boshqaruvidagi "Human–AI interaction" masalasini yoritib, algoritmlar shaffofligi yetarli bo'lmasa, jamoatchilik ishonchi pasayishini ta'kidlaydi. Schroeder va Lee [2025] esa "Good Governance of Public Sector AI" ishida axloqiy nazorat va mas'uliyatli qaror qabul qilish tamoyillarini ilgari suradi. Abounaser va El Fakir [2025] Marokko tajribasi asosida sun'iy intellekt integratsiyasidagi asosiy to'siqlar — infratuzilma zaifligi, kadrlar malakasining pastligi va huquqiy bazaning to'liq shakllanmaganligini aniqlagan.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Soliev [2025] "Artificial Intelligence in the Management Sphere of Uzbekistan" asarida sun'iy intellektni boshqaruv tizimiga integratsiya qilishdagi imkoniyat va cheklovlarni tahlil qilgan. Rakhmatov [2025] "Balancing Innovation and Regulation" ishida innovatsiya va xavfsizlik muvozanatini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi. Yuldashev [2025] davlat kompaniyalarida sun'iy intellekt joriy etilishi natijasida xato aniqlash tezligi 25–30 foizga oshganini isbotlagan. Quwanishbaevna [2025] davlat hisobot tizimida raqamli texnologiyalar orqali shaffoflik va hisobdorlik oshishini ta'kidlaydi. Toshpolatova [2025] esa davlat xizmatchilari uchun sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tayyorgarlik yetishmasligini ko'rsatgan.

Sharhlangan manbalardan kelib chiqib, sun'iy intellekt ichki nazorat tizimining samaradorligini oshiradi, xato ehtimolini kamaytiradi va tahlil jarayonlarini avtomatlashtiradi. Biroq huquqiy, axloqiy va infratuzilmaviy muammolar hal etilmas ekan, texnologiyaning foydasi cheklangan bo'lib qoladi. O'zbekiston sharoitida sun'iy intellektni ichki nazorat tizimiga joriy qilishdan avval ma'lumotlar sifatini yaxshilash, kadrlar malakasini oshirish va huquqiy bazani takomillashtirish zarur. Umuman olganda, sun'iy intellekt davlat sektoridagi ichki nazorat tizimini isloh qilishda katta imkoniyat yaratsa-da, uning xavflarini kamaytirish uchun ilmiy va amaliy yondashuv talab etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning obyektini davlat sektoridagi ichki nazorat tizimi va uning samaradorligini baholashda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish jarayonlari tashkil etadi. Predmet sifatida esa sun'iy intellekt asosidagi ichki nazorat usullarining texnik, tashkiliy, axloqiy va institutsional ta'sir omillari hamda ularning davlat sektoridagi amaliy samarasi o'rganilgan.

Tadqiqotda ichki nazorat tizimi keng ma'noda talqin qilinib, unga ichki audit, moliyaviy hisobot ustidan nazorat va tashkilotning ichki xatirlarni boshqarish tizimi kabi komponentlar kiritilgan.

Metodologik jihatdan tadqiqot kompleks yondashuv asosida amalga oshirilgan, ya'ni sistemali tahlil usuli — ichki nazorat tizimi elementlarining o'zaro bog'liqligini aniqlash; SWOT tahlil usuli — sun'iy intellektni joriy etishdagi kuchli, zaif, imkoniyat va xavf jihatlari baholash; kontent tahlil usuli — xalqaro va milliy normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy manbalarni tahlil qilish; taqqoslama tahlil usuli — O'zbekiston, Yel va rivojlangan davlatlar (AQSh, Yaponiya, Singapur) davlat sektoridagi sun'iy intellekt integratsiyasi tajribalarini qiyosiy o'rganish uchun qo'llangan.



Tadqiqotda Scopus va Web of Science bazalarida 2018–2025-yillar oralig'ida chop etilgan ilmiy manbalar tahlil qilingan. Shuningdek, EY (Ernst & Young), KPMG, Deloitte va PwC kabi BIG 4 auditorlik tashkilotlarining hisobotlari, shuningdek, OECD, World Bank va IMF kabi xalqaro institutlar tomonidan tayyorlangan tahliliy materiallardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ma'lumot bazasini quyidagi turdagi manbalar tashkil etgan:

Xalqaro moliya institutlarining hisobotlari (World Bank Digital Governance Review 2024; IMF Public Sector Innovation 2023; OECD AI Governance 2025);

Ilmiy jurnallar (Public Administration Review, Journal of Public Sector Accounting, MDPI Systems, AI & Society);

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari (PQ-4996, 2021; Strategy for AI Development to 2030, 2024);

O'zbekiston Auditorlar palatasi hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari [2022–2024].

Ma'lumotlar sifat jihatidan tahlil qilinib, ilmiy manbalar va normativ hujjatlar mazmunidagi asosiy tendensiyalar, xavflar va imkoniyatlar kodlashtirilgan.

Tadqiqotda sun'iy intellektning davlat sektoridagi ichki nazorat tizimiga ta'sirini baholash uchun konseptual model ishlab chiqilgan. Model quyidagi asosiy elementlar o'rtasidagi munosabatni aniqlashga qaratilgan (1-jadval).

1-jadval. Davlat sektoridagi ichki nazorat tizimini baholashda sun'iy intellektning ta'siri

Omilar	Tavsifi
Tashkiliy omillar	Davlat sektoridagi ichki nazorat tizimi tuzilishi, axborot bazasi va nazorat funksiyalari.
Texnologik omillar	Sun'iy intellekt, Big Data va Machine Learning texnologiyalarining joriy etilishi darajasi.
Inson omili	Kadrlar malakasi, axloqiy savodxonlik va sun'iy intellektni qabul qilish darajasi.
Samaradorlik ko'rsatkichlari	Ichki nazorat tizimida xatoliklar soni, hisobot aniqligi, audit tezligi.

Model asosida tadqiqot gipotezasi shakllantirilgan: “Davlat sektorida ichki nazorat tizimida sun'iy intellektidan foydalanish samaradorlikni oshiradi, ammo inson omili va axloqiy cheklovlar inobatga olinmasa, uning natijaviyligi pasayishi mumkin.”

Ilmiy jihatdan ushbu tadqiqot sun'iy intellektni ichki nazorat tizimida qo'llashning institutsional modelini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa natijalar davlat sektorida ichki audit jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumot xavfsizligini kuchaytirish va kadrlar malakasini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi besh yilda xalqaro miqyosda davlat sektorida ichki nazorat tizimlarini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalari asosiy drayverlardan biri sifatida tan olingan. KPMG [2024] hisobotiga ko'ra, davlat va xususiy sektor audit tizimlarida sun'iy intellektidan foydalanish orqali tekshiruv natijalari aniqligi 35–40 foizga, tekshiruv tezligi esa 50 foizgacha oshgan (KPMG AI in Financial Reporting and Audit, 2024). PwC va Deloitte [2023] ham shunga o'xshash natijalarni qayd etib, “continuous auditing” va “risk prediction” tizimlari inson xato ehtimolini sezilarli darajada kamaytirganini ta'kidlaydi (PwC AI Impact on Audit, 2023).

World Bank [2024] va IMF [2023] tahlillariga ko'ra, sun'iy intellekt texnologiyalarini davlat boshqaruviga joriy qilish natijasida ma'lumotlar bazasi shaffofligi 25–30 foizga oshgan, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimlari samaradorligida esa 20 foizlik o'sish qayd etilgan (World Bank Digital Governance Review, 2024). OECD [2025] “AI Governance Framework”ida davlat sektorida sun'iy intellektidan foydalanishning asosiy samarasi sifatida “policy responsiveness” va “data-driven decision-making” tamoyillarining shakllanishi alohida ko'rsatilgan (OECD, 2025).

Shu bilan birga, xalqaro amaliyotda ma'lum xavflar ham aniqlangan:

- algoritmlar “bias” va “opacity” (tushunarsiz qaror qabul qilish) xavfini keltirib chiqaradi (Broniatowski, JPART 2023);



• ma'lumot xavfsizligi va inson nazorati yetishmasligi davlat sektorida ishonchni pasaytiradi (Schroeder & Lee, AI & Society 2025).

Scopus va Web of Science bazalaridagi 2019–2025-yillar oralig'idagi tahlillarga ko'ra, sun'iy intellekt davlat sektorida qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlar quyidagi to'rtta yo'nalishda jamlangan (Plata et al., 2024; Liu et al., 2024; Abounaser & El Fakir, 2025) (2-jadval).

2-jadval. Sun'iy intellekt davlat sektorida qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlarning asosiy yo'nalishlari

No	Yo'nalish nomi	Asosiy manba	Ilmiy natija
1	AI-driven internal control	Liu et al. (2024), MDPI Systems	Sun'iy intellekt qo'llanishi ichki nazorat sifati va ishonchligini oshiradi
2	Public sector audit automation	Plata et al. (2024), Public Sector Audit Journal	Sun'iy intellekt tekshiruv va monitoring jarayonlarini avtomatlashtiradi
3	Ethics & trust in AI	Schroeder & Lee (2025), AI & Society	Etik shaffoflik yetishmasa, davlat institutlariga ishonch pasayadi
4	AI integration barriers	Abounaser & El Fakir (2025), RePEc	Kadrlar malakasi va infratuzilma yetishmasligi asosiy to'siq

Bu tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, ilmiy hamjamiyat sun'iy intellektning ichki nazorat tizimiga joriy etilishi masalasida texnologik foyda va axloqiy cheklorlar o'rtasidagi muvozanatni izlamogda.

O'zbekistonda raqamli boshqaruv siyosati "Digital Uzbekistan – 2030 Strategy" [2020] va "Artificial Intelligence Development Strategy to 2030" [2024] orqali qo'llab-quvvatlanmogda. Mazkur hujjatlarda davlat idoralarida sun'iy intellekt asosida monitoring va ichki audit jarayonlarini avtomatlashtirishni yo'lga qo'yish belgilangan (gov.uz, 2024).

Yuldashev [2025] tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotda sun'iy intellekt asosidagi audit tizimi natijasida xatolar aniqlanish tezligi 30 foizga, tekshiruv hajmi esa 25 foizga oshgani aniqlangan (gejournal.net, 2025).

Shuningdek, Soliev [2025] va Toshpolatova [2025] tadqiqotlariga ko'ra, davlat xizmatchilari orasida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malakali kadrlar ulushi hali 50 foizdan oshmagan bo'lib, bu omil joriy etish jarayonini sekinlashtirmogda.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4996 [2021] qarorida davlat idoralarida intellektual audit va ichki nazorat funksiyalarini avtomatlashtirishni kengaytirish belgilangan (lex.uz).

Davlat sektorida ichki nazorat tizimini baholashda sun'iy intellektidan foydalanishning SWOT tahlilini ko'rib chiqamiz (3-jadval).

3-jadval. Davlat sektorida ichki nazorat tizimini baholashda sun'iy intellektidan foydalanishning SWOT tahlili

Yo'nalish	Kuchli jihatlar	Zaif jihatlar	Imkoniyatlar	Xavflar
Texnologik	Sun'iy intellekt tezkor va aniq tekshiruvni ta'minlaydi	Infratuzilma va API integratsiyasi yetishmaydi	Blockchain va Big Data ni joriy etish	Kiberxavfsizlik xatarlari
Tashkiliy	Raqamlashtirish strategiyasi amalda	Idoralararo ma'lumot almashinuv sust	AI-based Monitoring Center tashkil etish	Ma'lumot dublikatsiyasi va avtomatlashtirish xatosi
Inson omili	Kadrlar qayta tayyorlash dasturlari mavjud	Sun'iy intellekt malakali mutaxassislar yetishmasligi	Davlat sun'iy intellekt akademiyasini shakllantirish	Inson mas'uliyatining pasayishi
Huquqiy-etik	Etik kodeks ishlab chiqish imkoniyati bor	Normativ asos to'liq emas	Sun'iy intellekt etika standartini milliy darajada joriy etish	Algoritmlar shaffofligi yetishmasligi

SWOT tahlil natijalari asosida aytish mumkinki, O'zbekiston sun'iy intellektning ichki nazorat tizimida qo'llash uchun institutsional asosni yarata olgan, biroq to'liq samaradorlik kadrlar tayyorgarligi va huquqiy mexanizmlar muvofiqligiga bog'liq. Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, sun'iy intellekt texnologiyalarining ichki nazorat tizimiga joriy etilishi moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni oshiradi, biroq bu jarayon inson omili bilan muvozanatda amalga oshirilishi zarur. Sun'iy intellekt orqali quyidagi ilmiy va amaliy natijalar kuzatilgan: nazorat samaradorligi oshishi — sun'iy intellekt asosidagi avtomatik tahlil va xato bashorati funksiyalari natijasida tekshiruv tezligi va aniqligi kuchaygan; ma'lumot shaffofligi kuchayishi — boshqaruv qarorlari data-driven



tamoyillariga asoslanmoqda; risk-menejment takomillashuvi — mashinali o'rganish modellari orqali operatsion va moliyaviy xatarlar ertaroq aniqlanmoqda.

Biroq sun'iy intellekt integratsiyasi bilan bir qator xatarlar ham mavjud: algoritmlarning o'z-o'zidan o'zgaruvchanligi (accountability risk), inson omilining pasayishi (human oversight risk) va axloqiy muammolar (ethical bias). Shuning uchun sun'iy intellektni ichki nazorat tizimiga joriy etishda e'tibor berilishi zarur bo'lgan tamoyillar quyidagicha: Human-in-the-loop model — inson nazorati saqlanishi kerak; Explainable AI (XAI) — algoritmlar qarorining izohlanishi shart; AI Governance Framework — huquqiy va axloqiy boshqaruv tizimini ishlab chiqish talab qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarini davlat sektoridagi ichki nazorat tizimiga joriy etish nafaqat texnik innovatsiya, balki davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tizimli islohotdir. Ilmiy jihatdan sun'iy intellekt ma'lumotlarni qayta ishlash, anomalialarni aniqlash va risklarni bashorat qilish jarayonlarini avtomatlashtirib, ichki nazorat tizimining sifatini sezilarli darajada oshiradi (Liu et al., 2024; Plata et al., 2024). Amaliyot nuqtayi nazaridan, KPMG [2024], PwC [2023] va World Bank [2024] hisobotlariga ko'ra, sun'iy intellekt asosidagi audit tizimlari tekshiruv tezligini 35–40 foizga, nazorat aniqligini 25–30 foizga oshirgan. Institutsional jihatdan esa davlat sektorlaridagi raqamli islohotlar (OECD, 2025; IMF, 2023) axborot shaffofligini va hisobdorlikni kuchaytiradi, biroq axloqiy va huquqiy cheklolar hali yetarlicha mustahkam emas.

O'zbekiston amaliyotida "Digital Uzbekistan 2030" strategiyasi doirasida sun'iy intellektni joriy qilish uchun infratuzilma yaratilgan, ammo kadrlar salohiyati va ma'lumot xavfsizligi bo'yicha islohotlar davom ettirilishi zarur. Shu asosda tadqiqot gipotezasi tasdiqlangan: davlat sektorida ichki nazorat tizimida sun'iy intellektidan foydalanish samaradorlikni oshiradi, ammo inson omili va axloqiy cheklolar inobatga olinmasa, natija cheklangan bo'ladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy va amaliy tavsiyalar ilgari suriladi: institutsional darajada davlat sektorida sun'iy intellektni joriy qilish bo'yicha milliy AI governance modelini ishlab chiqish (AI ethics, data protection va accountability tamoyillari asosida). Har bir davlat idorasida AI–Audit Monitoring Unit tashkil etish, u orqali ma'lumotlar tahlili va xatar monitoringini avtomatlashtirish. Sun'iy intellekt texnologiyalari uchun ISO 42001 "AI Management System Standard" talablariga mos milliy standartlar qabul qilinishi zarur.

Tashkiliy va kadrlar sohasida davlat xizmatchilari uchun "AI va ichki audit" mavzusida maxsus malaka oshirish dasturlarini joriy etish (Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi va Axborot texnologiyalari universiteti bilan hamkorlikda). Ichki audit xodimlarini data literacy va AI etikasi bo'yicha tayyorlash inson omilining sifatini oshiradi. "Human-in-the-loop" modeli asosida sun'iy intellekt qarorlarini inson tomonidan tasdiqlash tizimi yaratilishi lozim.

Texnologik va huquqiy yo'nalishda davlat nazoratidagi ma'lumotlar bazalarini integratsiyalashgan Big Data Platform ko'rinishida qayta ishlash, axborot xavfsizligi bo'yicha national cybersecurity code for AI ishlab chiqish, sun'iy intellekt algoritmlarining shaffofligi va izohlanuvchanligini ta'minlovchi Explainable AI (XAI) tizimlarini joriy etish zarur.

Ilmiy-tadqiqot yo'nalishida davlat sektorida sun'iy intellekt joriy etilishi natijasini baholovchi metrik ko'rsatkichlar tizimi (AI–IC Index) ishlab chiqish, xalqaro hamkorlik doirasida OECD va World Bank bilan qo'shma tadqiqotlar tashkil etish, universitetlar va ilmiy markazlarda "Public AI Audit Lab" laboratoriyalarini tashkil etish orqali davlat sektoridagi muammolarga tajribaviy yechimlar yaratish mumkin bo'ladi. Sun'iy intellekt integratsiyasining davlat boshqaruv samaradorligiga makroiqtisodiy ta'sirini empirik baholash (econometric model based on panel data) uchun ichki nazorat tizimida "AI trust index" orqali axloqiy ishonchni o'lchash usullarini ishlab chiqish hamda sun'iy intellekt va inson nazorati o'rtasidagi optimal muvozanat modelini (Hybrid governance framework) yaratish zarur.

Sun'iy intellekt davlat sektorida ichki nazorat tizimining yangi bosqichini belgilaydi. U nazoratni samarali, tezkor va ilmiy asoslangan qiladi. Biroq uning haqiqiy qiymati inson omilini yo'qotmasdan, axloqiy va huquqiy asoslar bilan muvozanatlangan holda qo'llanilganda namoyon bo'ladi. Demak, sun'iy intellekt — xavf emas, balki mas'uliyat bilan boshqarilgan holda davlat nazoratini isloh qilish imkoniyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). "Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4996-son qaror. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/5715929>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2024). Artificial Intelligence Development Strategy to 2030. Gov.uz. <https://gov.uz/en/digital/news/view/24510>
3. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari vazirligi. (2020). Digital Uzbekistan – 2030 Strategy. Tashkent: MITC Press.



4. Deloitte Insights. (2023). AI and audit analytics: Enhancing trust in public sector reporting. <https://www.deloitte.com/insights>
5. Ernst & Young (EY). (2024). AI-enabled risk assessment in internal audit. London: EY Global Research.
6. KPMG International. (2024). AI in financial reporting and audit: Navigating the new era. <https://kpmg.com/xx/en/our-insights/ai-in-financial-reporting-and-audit.html>
7. PwC Global. (2023). The impact of AI on auditing and assurance services. <https://www.pwc.com/gx/en/issues/analytics/artificial-intelligence.html>
8. World Bank. (2024). Digital governance review: Leveraging AI for transparency and accountability. Washington, DC: World Bank Publications.
9. OECD. (2025). Governing with artificial intelligence: OECD framework for public sector AI governance. Paris: OECD Publishing.
10. International Monetary Fund (IMF). (2023). Public sector innovation and digital oversight report 2023. Washington, DC: IMF Working Paper Series.
11. United Nations E-Government Survey. (2024). Digital government in the age of AI. New York: UN Publications.
12. Abounaser, N., & El Fakir, M. (2025). Barriers to the integration of artificial intelligence in public sector internal audit functions: Evidence from Morocco. *Economics, Development and Sustainability Journal (RePEc)*, 9(5), 1291–1302. <https://ideas.repec.org/a/ajp/edwast/v9y2025i5p1291-1302.html>
13. Broniatowski, D. (2023). Human–AI interactions in public sector decision-making. *Journal of Public Administration Research and Theory*, 33(1), 153–174. <https://doi.org/10.1093/jopart/muac048>
14. Liu, Y., Lin, W., & Wang, H. (2024). The relationship between AI adoption intensity and internal control system quality. *Systems (MDPI)*, 12(11), 536. <https://doi.org/10.3390/systems12110536>
15. Plata, J., López-Pérez, F., & López-Hernández, A. M. (2024). Artificial intelligence and public sector auditing: Opportunities and challenges. *Public Sector Audit Journal (MDPI)*, 6(2), 78. <https://doi.org/10.3390/psaj6020078>
16. Schroeder, R., & Lee, H. (2025). Good governance of public sector AI: Ethics, accountability, and transparency. *AI & Society (Springer)*, 40(3), 411–428. <https://doi.org/10.1007/s43681-025-00751-3>
17. Soliev, M., & Mamarasulov, A. (2025). Artificial intelligence in the management sphere of Uzbekistan. ResearchGate. <https://www.researchgate.net/publication/396792277>
18. Rakhmatov, D. (2025). Balancing innovation and regulation: Uzbekistan's strategy for AI-driven digital transformation. ResearchGate. <https://www.researchgate.net/publication/396700988>
19. Toshpolatova, Sh. M. (2025). Ethics of AI technologies as a task in the training of public civil servants in the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Psychology and Behavioral Sciences*, 13(2), 115–122. <https://www.sciencepublishinggroup.com/article/10.11648/j.ijp.20251302.15>
20. Yuldashev, U. (2025). The role of artificial intelligence in auditing public sector companies in Uzbekistan. *Asian Pacific Journal of Management and Marketing Research*, 12(3), 44–56. <https://gejournal.net/index.php/APJMMR/article/view/2656>
21. Quwanishbaevna, M. (2025). Transforming public sector accounting in Uzbekistan. *Spanish Journal of Innovation and Informatics*, 8(1), 660–672. <https://www.sjii.es/index.php/journal/article/view/660>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
